

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETI**

*Qo'lyozma huquqida*  
**УДК: 616-006.04:615, 277:599.323.4**

**SOLIYEV RAVSHANJON RAHMATJON O'G'LINING**

**Giperurikemiya kasalligi bilan nomzod genning polimorfizmi o'rta sidagi  
assotsatsiyasi**

**5A 140106-Biokimyo**

**Magistr  
Akademik darajasini olish uchun yozilgan  
Dissertatsiya**

**Ilmiy rahbar:  
Dots. Muhammadjonova G.M.**

**Toshkent - 2018**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b>	<b>3</b>	
<b>I BOB</b>	<b>ADABIYOTLAR TAHLILI</b>	<b>7</b>
1.1.	Giperurikemiya kasalligi haqida umumiylumot	7
1.2.	Giperurikemiya kasalligini keltirib chiqaruvchi omillar	13
1.3.	Giperurikemiya kasalligida biokimyoviy o'zgarishlar	21
1.4.	Giperurikemiya kasalligini yuzaga kelishida nasliyomillar	29
1.5.	Giperurikemiyakasalligida GLUT9 genini polimorfizm bilan assotsatsiyasi	34
<b>I bob</b>	bo'yicha xulosalar	<b>38</b>
<b>II BOB</b>	<b>ILMIY TADQIQOTDA QO'LLANILGAN MATERIAL VA METODLAR</b>	<b>40</b>
2.1.	Kerakli reaktivlar va eritmalar taylorlash	40
2.1.1.	Tadqiqot jihozlari	40
2.2.	DNK ajratib olish	41
2.3.	Agarozali gel elektroforez qo'yish	42
2.4.	PZR – amplifikatsiya reaksiyasini o'tkazish	43
2.4.1.	PZR uchun maxsus nabordan foydalanib PZR amplifikatsiya qilish	44
2.4.2.	PCR core nabordan foydalanib PZR amplifikatsiya qilish	45
2.5.	Gel elektroforez o'tkazish	46
2.6.	Restriksion fragmentlarning uzunlik polimorfizmini aniqlash analizini o'tkazish	49
2.7.	Statistik taxlil	50
<b>II bob</b>	bo'yicha xulosalar	<b>51</b>
<b>III BOB</b>	<b>OLINGANNATIJALAR VA ULARNING TAHLILI</b>	<b>52</b>
3.1.	Giperurikemiya kasalligida GLUT9 gening PZR – amplifikatsiya natijasi	52
3.2.	Giperurikemiya kasalligida GLUT9 genini restriksiya reaksiyasining natijasi	55
3.3.	Giperurikemiya kasalligida GLUT9 genini polimorfizmi bilan assotsiyatisyoning statistik taxlil natijalari	57
	<b>TAVSIYALAR</b>	<b>64</b>
	<b>XULOSALAR</b>	<b>66</b>
	<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR</b>	<b>68</b>

## QISQARTMA SO'ZLAR RO'YXATI

**PZR** – Polimer zanjir reaksiya uslubi

**DNK** – dezoksiribonuklein kislota

**J.n.** – juft nukleotid

**Tris** – trisgidroksimetilaminometan ((HOCH<sub>2</sub>)<sub>3</sub>CNH<sub>2</sub>)

**EDTA** – etilendiamintetraatsetat

**dNTP** – dezoksinukleotidtrifosfat

**PSA** – ammoniy persulfat

**TBE** – tris-borat-etilendiamintetraatsetat-elektroforezli bufer

**PAAG** – Poliakrilamidli gel elektroforez

**DNK** – Dezoksiribonukleinkislota

**rRNK** – Ribosomal ribonukleinkislota

**ATF** – Adenazintrifosfat

**GTF** – guanidintrifosfat

**NK** – Nuklein kislotalar

**dd-H<sub>2</sub>O** – distillangan dionizlangan suv

**GU** – Giperurikemiya

**GLUT9** – geni

**MspI** – fermenti

**RFLP** – Restriksion fragment uzunligi polimorfizmi

## KIRISH

**Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining dolzarbligi:** Odam xromosomasini tahlil qilish usullari takomillashgan sari ko‘pchilik kasalliklarning irsiyat bilan bog’liq ekanligi va aynan sababchisi xromosomadagi gen mutatsiyalari tufayli yuzaga kelishi isbotlangan. Bu mutatsiyalarni hozirgi zamonaviy biokimyo va molekulyar-biologiyadagi metodlar bilan o’rganish irsiy kasalliklarni erta aniqlashga imkon beradi.

Butun jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra barcha yangi tug‘ilgan chaqaloqlarning taxminan 2,5-3% rivojlanishida turli nuqsonlar kuzatiladi. Ulardan 1%- yaqini gen kasalliklari, 0,5%- xromosoma kasalliklari va 2%- yaqinini turli omillar ta’sirida yuzaga keladigan tug‘ma rivojlanish nuqsonlari tashkil qiladi. So‘ngi ma’lumotlarga qaraganda yer yuzida 4-5% bolalar irsiy kasalliklar bilan tug‘ilishi aniqlangan, shuningdek bolalar o‘limining 10-20 % irsiy kasalliklar tufayli sodir bo‘ladi [49, 50].

Har yili bolalar va kattalarda giperurikemiya kabi patologiyaning namoyon bo‘lish hollari ko‘payib bormoqda. Skrining tekshiruvlari natijalariga ko‘ra,bu patologik holat katta yoshlilarning deyarli 20% foizida va dunyo bolalarining 3% foizida kuzatilmoqda.So‘nggi yillarda bu kasallikka juda ko‘p e’tibor berilmagan, chunki u aholining kam sonli kishilarida tarqalgan edi.

Hozirda ushbu patologiyaning yurak-qontomir kasalliklariga ta’siri yuqori ekanligini mutaxassislar tadqiqotlar natijasida aniqlashmoqda.Giperurikemiya belgilari asosan nospesifikdir.Giperurikemianing asosiy belgilari bu-biokimyoviy qon testida siydk kislotasi darajasining oshishi bilan aniqlanadi. Me’yoriy darajaning yuqori chegarasi ayollar uchun 360 mikromol/litr (6 mg/dl), erkaklar uchun esa 420 mikromol/litr (6,8 mg/dl) ni tashkil etadi.Giperurikemiya kasalligini yuzaga chiqishida bir necha faktor sabab bo’lishi mumkin, bulardan biri genetik faktor hisoblanadi. Genetik faktorlarga asosiy marker (GLUT9,URAT1, ABCG2) genlar hisoblanadi. Inson salomatligi davlat ahamiyati darajasidagi dolzarb bo’lgan, hozirgi vaqtida har qanday kasallikka aniq tashxis qo’yish muhim ahamiyatga ega bo’lgan masalalardan

biridir. Shu jumladan, naslga bevosita ta'sir qiladigan gen mutatsiyasi natijasida kelib chiqadigan kasalliklarni aniqlash va zamonaviy diagnostik test sistemalariga kiritish maqsadli bo'ladi.

O'zbekistonda ilk bor Giperurikemiya kasalligi bilan tashxis qo'yilgan bemorlarda GLUT9 gening rs734553 G/T polimorfizmlar bilan assotsiyatsiyasi genetik jihatdan o'r ganilmagan.

**Tadqiqot maqsadi:** O'zbekiston aholisida uchraydigan giperurikemiya kasalligidagi GLUT9 gening (rs734553) G/T polimorfizm assotsiyatsiyasini o'r ganish.

### **Tadqiqot vazifalar:**

1. Giperurikemiya tashxisi qo'yilgan bemorlarning DNK sini ajratish va DNK bankini yaratish;
2. GLUT9 genini PZR-amplifikatsiya reaksiyasi yordamida amplifikatsiya qilish;
3. GLUT9 G/T (rs734553) polimorfizmini aniqlash uchun restriksiya reaksiyasini o'tkazish;
4. Giperurikemiya kasalligi bilan GLUT9 G/T (rs734553) polimorfizm assotsiyasining statistik taxlili.

**Tadqiqot ob'ekti:** Giperurikemiya tashxisi qo'yilgan bemorlardan olingan venoz qon na'munasi, DNK, GLUT9 gening polimorfizmi.

**Tadqiqot predmeti:** Biokimyo, molekulyar-biologiya, molekulyar genetika.

**Ilmiy yangiligi:** O'zbekistonda ilk bor Giperurikemiya kasalligi bilan tashxis qo'yilgan bemorlarda GLUT9 geningrs734553 G/T polimorfizm o'rtasidagi assotsiyatsiyasi o'r ganildi.

**Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari.** Klinik jihatdan Giperurikemiya kasalligi deb shubha qilingan bemorlarni PZR usuli yordamida GLUT9 genidagi mutatsiya holatlari va polimorfizmlari o'r ganilib, klinik ko'rsatkichlari bilan tahlil qilinadi.

**Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili).** Inson salomatligi davlat ahamiyati darajasidagi dolzarb bo'lgan, hozirgi vaqtida har qanday kasallikka aniq tashxis qo'yish muhim ahamiyatga ega bo'lgan masalalardan biridir. Shu jumladan, naslga bevosita ta'sir qiladigan gen mutatsiyasi natijasida kelib chiqadigan kasalliklarni aniqlash va zamonaviy diagnostik test sistemalariga kiritish maqsadli bo'ladi.

**Tadqiqotda qo'llaniladigan metodikaning tavsifi.** Tadqiqot davomida Giperurikemiya tashxisi qo'yilgan bemorlarning venoz qon na'munalaridan DNK ajratish, PZR-amplifikatsiyasini o'tkazish, Restriksiya reaksiyasini o'tkazish, Gel-elektroforez metodlaridan foydalanildi.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.** Magistrlik dissertatsiyasi tadqiqot natijalaridan diagnostika markazlari va tibbiyot xodimlari uchun Giperurikemiya kasalligida GLUT9 gening rs734553 G/T polimorfizmi molekulyar-genetik marker geni bo'lib hizmat qiladi. Ushbu kasalliklarni zamonaviy diagnostik test sistemalariga GLUT9 rs734553 G/T polimorfizmlarini kiritish maqsadli bo'ladi.

**Dissertatsiyasining tuzilishi.** Dissertatsiya 75 betdan iborat bo'lib, 15 tа rasm, 8 ta jadval, 1 ta diagrammadan tarkib topgan. Dissertatsiya an'anaviy usulda yozilgan bo'lib mundarija, kirish, adabiyotlar tahlili, uslubi va jihozlari, natijalari, xulosa va tavsiya kabi bo'limlardan iborat. Bibliografik qismi o'z ichiga 60 ta adabiyotlar ro'yhatini oladi.

**Magistrlik dissertatsiyasi materiallarining matbuotda yoritilishi.** Dissertatsiya natijalari bo'yicha 1 ta maqola Respublika nashrlarida chop etilgan.

**Magistrlik dissertatsiyasini bajarilgan manzilgohi.** Tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Bioorganik Kimyo Instituti Farmakogenomika laboratoriyasida olib borildi.

**Magistrlikdissertatsiyasi o'rganilganlik darjasи.** Rivojlangan mamlakatlarda PZR usuli yordamida irsiy kasalliklar bilan bog'liq mutatsion holatlarin aniqlash yo'lga qo'yilgan va bu amaliyotga tatbiq qilingan. Birinchi

marta O’zbekistonda O’zRFA Bioorganik kimyo Instituti Farmakogenomika laboratoriyasi va Samarqand Tibbiyot instituti Urologiya kafedrasи hamkorligidagi loyiha doirasida amalga oshirildi (2016-2018 yil).

**Bajarilgan ishning asosiy natijalari.** Giperurikemiya kasalligida GLUT9 gening polimorfizmi PZR usulida aniqlandi. Buning uchun PZR optimizatsiya qilindi. Tajriba na’munalaridan olingan natijalarga ko’ra Giperurikemiya bemorlarida GLUT9 rs 734553 G/T polimorfizm bilan assotsiyasi aniqlandi. Bunga ko’ra, Giperurikemiya kasallarida uchrash chastotasi: GT- 49 ta (40,5%) ; TT- 70 ta (58%) ; GG- 2 ta (1,5%) sog’lom odamlarga nisbatan yuqoriligi aniqlandi. ( $p<0,001$ )

### **Xulosa va takliflarning qisqacha umumlashtirilgan ifodasi.**

Tadqiqot natijalaridan diagnostika markazlari va tibbiyot o’quv yurtlari uchun amaliyat darslari davomida Giperurikemiya kasalligi GLUT9 gening rs734553 G/T polimorfizmi, molekulyar-genetik marker sifatida foydalanishlari mumkin. Shu bilan birga GLUT9 rs734553 G/T polimorfizmini o’rganish qonda siydik kislotasi darajasini tartibga solish, podagra va ayrim yurak-qon tomir (kardiovaskulyar) kasalliklarini oldini olishda yordam beradi. Ushbu kasalliklarni zamonaviy diagnostik test sistemalariga GLUT9 rs734553 G/T polimorfizmlarini kiritish maqsadli bo’lib, foydalanishlariga tavsiya etiladi.

## I BOB. ADABIYOTLAR TAHLILI

### **1.1. Giperurikemiya kasalligi haqida umumiylumot**

Har yili bolalar va kattalarda giperurikemiya kabi patologiyaning namoyon bo'lish hollari ko'payib bormoqda. Skrining tekshiruvlari natijalariga ko'ra, bu patologik holat purin almashinuvi bilan bog'liq bo'lib, katta yoshlilarning deyarli 20% foizida va dunyo bolalarining 3% foizida kuzatilmoxda. Purin bilan bog'liq moddalar almashinuvidanagi buzilishlarning ortishi dunyodagi noqulay ekologik vaziyatga, xususan, purin almashinuviga salbiy ta'sir ko'rsatadigan dvigatellarning yonish mahsulotlari toksik emissiyasini oshib borishi bilan bog'liq [1,4].

Giperurikemiya — qonda siydik kislotasi darajasining juda yuqori darajagacha ko'tarilishi bilan tavsiflanadigan kasallik. Me'yoriy darajaning yuqori chegarasi ayollar uchun 360 mikromol/litr (6 mg/dl), erkaklar uchun esa 420 mikromol/litr (6,8 mg/dl) ni tashkil etadi. Giperurikemianing biokimyoviy ko'rsatkichlari podagra kasalligini rivojlanishiga ishora qiladi. Tana suyuqligida urat kislotasining konsetratsiyasi ko'tarilishi va uning kamayish nisbatlari bilan aniqlanadi. To'g'riroq etadigan bo'lsak, giperurikemiya inson qonida urat kislotasining miqdorini oshib ketishidir. Urat kislotasi normada 240-400 mm / l ni tashkil qiladi. Endogen va ekzogen ko'rinishga ega purin asoslarini oksidlanishidan hosil bo'ladi. Urat kislotasining taxminan 2/3 qismi siydikda (kuniga 300-600 mg) va taxminan 1/3 qismini oshqozon-ichak trakti orqali chiqarib tashlanadi va u yerda bakteriyalar tomonidan yo'q qilinadi [6,7].

**Giperurikemianing turlari** - tabiat bo'yicha kasallikning birinchi va ikkinchi darajali shakllari aniqlangan. Birlamchi giperurikemiya - idyopatik xarakterga ega, ya'ni noma'lum, sabablarga ko'ra paydo bo'ladi. Bu molekulyar darajadagi biosintezning buzilishi va purin metabolizm patologiyasi natijasida nuklein kislotalarning parchalanishi natijasida paydo bo'ladi .(Purin inson tanasining barcha hujayralarida topilgan muhim moddadir). Ikkilamchi giperurikemiya adenozintrifosfatning tez parchalanib ketishi va har qanday

kasallik oqibatida yuzaga keladi. Shunga o'xshash shakli ko'pincha turli xil gipoksiya va qonda laktat, glyukoza muvozanatini buzilishi, spirtli ichimliklarni ko'p iste'mol qilish bilan ham yuzaga keladi. Ikkilamchi giperurikemiya mielo va limfoproliferativ kasalliklar, infektsion mononukleoz, zararli anemiya, hujayra bo'linishi va to'qimalarni yemirilishi,o'sma jarayonlarda va boshqa kasalliklar natijasida yuzaga kelishi mumkin.Shish jarayonlarni davolash ham giperurikemiyaga olib kelishi mumkin.Ushbu shaklarning tez-tez kelib chiqishi buyrak yetishmovchiligi bo'lib, bunda urat kislotasi kristallanib buyrak kanallarida bloklanishi natijasida kelib chiqadi.

Giperurikemiya turlari:

**Metabolik;**


**Buyrakli;**

**Aralash**

Metabolik giperurikemiya urat kislotasi ishlab chiqarishini kuchaytirdi. Buyrak giperurikemiyada esa buyraklar orqali chiqarib yuboriladi. Giperurikemiyaning metabolik va buyrak turi har doim ham aniqlash imkonи bo'lmasligi mumkin. Ko'pgina podagra bilan og'rigan bemorlardagi tekshiruvlar asosida giperurikemiyaning rivojlanish mexanizmlari aniqlanadi. Bunday holatlarda eng asosiy komponentga ko'ra tasniflanadi ya'ni buyrak yoki metabolik.Bu tasnif asosan, podagra yoki giperurikemiya kasalligi deb taxmin qilinadi.Ikkilamchi giperurikemiya kasallik belgilari yoki ma'lum farmakologik vositalarni qo'llash natijasida paydo bo'lgan holatlardir ya'niurat kislotasining giperproduktsiyasi. Urat kislotasi giperproduktsiyasida 5 kun ichida purinlar cheklab qo'yilib kuzatilganda keyin 600 mg dan ko'proq ekskretsiya bo'ladi. Bunday holatlar kasallikning barcha ko'rinishlarini 10 foizidan kamrog'iga to'g'ri keladi. Bunda kasallarda purin sintezi tezlashib boshqa birikmalarning oqimi oshib ketadi.Bu buzilishlarning asosiy mexanizmlarini tasavvur qilish uchun purin almashinuv sxemasini tahlil qilish kerak. Purin nukleotidlari - adenil, inozin va guanin kislotalari (tegishlicha AMP, IMP va GMF) - purin biosintezning yakuniy mahsulotlaridir.Ularni ikki usulda sintez qilish mumkin:

To'g'ridan-to'g'ri purin asoslaridan, ya'ni, Guanin (GMF), adeninli gipoksantin va AMP dan IMP, yoki purin bo'lмаган асослар билан бoshланib, umumiy bosqich oralig'idagi purin nukleotidi sifatida xizmat qiluvchi IMP orqali o'tkazib yuboradi. Inozin kislota AMP yoki GMF ga aylantirilishi mumkin. Purin nukleotidlarning hosil bo'lishidan so'ng ular nuklein kislotalarni, adenosin trifosfat (ATP) siklida AMP gacha, va GMP esa ba'zi kofaktorlar sintez qilishda ishlataladi.

Turli xil purinli birikmalar purin nukleotidlarining monofosfatlariga ajraladi. Guanin kislotasi guanozin, guanin kisantin orqali urat kislotaga aylantiriladi va inozin IMP, gipoksantin va ksantin orqali bir xil urat kislotasi bilan ajralib chiqadi va AMP IMP ga deaminatsiya qilinadi. Keyin inozin bilan urat kislotasi katabalizmida adenosin hosil bo'lishi bilan birga muqobil ravishda inozinga aylanadi. Purin metabolizmini tartibga solish ancha murakkab bo'lganligiga qaramasdan, insonlarda siyidik kislotasi sintezi tezligining asosiy determinanti 5-fosforibosil-1-pirofosfat (FRPF) bo'lib, hujayra ichidagi kontsentratsiyasiga qarab aniqlanadi.



1- rasm. Purin metabolizm sxemasi.

Odatda, hujayradagi FRPF darajasi oshganda, siydik kislotasining sintezi oshadi va uning darajasining pasayishi kamaytiradi. Ba'zi istisnolarga qaramay, aksariyat hollarda bunday holatlar uchridi [2,3,8]. Katta yoshli bemorlarda siydik kislotasining ortiqcha ishlab chiqarilishi metabolik kasalliklarning boshlang'ich yoki ikkilamchi belgisi sifatida xizmat qiladi. Giperurikemiya va podagrada qisman gipoksantin-guanin fosforiboziltransferaza yoki FRPF sintetazaning faolligi asosiy ro'lni o'ynaydi. Lesha-Naikxon sindromida gipoksantin - guaninfosforiboziltransferaza fermentini yetishmovchiligi sababli ikkilamchi giperurikemiyaga sabab bo'ladi. Bu jiddiy tug'ma anomaliyalarga olib keladi. Yuqorida aytib o'tilgan tug'ma metabolik kasalliklar (gipoksantin-guanin fosforiboziltransferaza yetishmovchiligi va FRPF sintetazaning ortiqcha faolligi) urat kislotasi ishlab chiqarishning ko'payishiga sabab bo'lgan, bu birlamchi giperurikemiya holatlarining 15% dan kamroq'ida aniqlangan. Bemorlarning ko'pchiligidagi ishlab chiqarishning ko'payish sababi noaniqligicha qolmoqda. Ikkilamchi giperurikemiya holatiga, urat kislotasi ishlab chiqarishning oshishi bilan bog'liq bo'lgan ko'plab sabablar taxmin qilinadi. Ba'zi bemorlarda siydik kislotasining ekstraktsiyasini oshishi, masalan birlamchi podagrada, purin biosintezini tezlashishi bilan bog'liq.

Bemorlarda glyukoza-6-fosfataza yetishmovchiligi (glyukogen I turdag'i kamqonlik kasalligi) doimo urat kislotasi ishlab chiqarish oshishi va doimiy ravishda purin biosintezini tezlashishiga sabab bo'ladi. Ushbu fermentativ anomaliyada siydik kislotasining giperproduksiyasi bir qator mexanizmlardan kelib chiqadi. Purin sintezi tezlashishi qisman FRPFning sintezini oshishi natijasi tufayli bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, siydik kislotasining chiqarilishini o'sishi purin nukleotidlarining parchalanish sintezini tezlashtirib yuboradi. Bu mexanizmlarning ikkalasi ham energiya manbayi bo'lgan glyukoza yetishmovchiligi sababli yuzaga keladi va ushbu kassalik uchun xos bo'lgan siydik kislotasi ishlab chiqarilishi kamayishi gipoglikemiya doimiy ravishda tuzatish bilan kamaytirish mumkin. Ikkinci darajadagi giperurikemiya bo'lgan bemorlarning ko'chiligidagi ortiqcha siydik kislotasi ishlab chiqarilishini asosiy

sababi, shubxasiz nuklein kislota aylanishing tezlashishi bilan ko'riladi. Nuklein kislota aylanishining tezlashishi sababli suyak iligini ajralishini faollashuvi yoki boshqa to'qima hujayralarning hayot siklini yoki ko'plab kasalliklar, xususan, myeloproliferativ va limfoproliferativ, ko'p turdag'i miyeloma, ikkilamchi politsiyemiya, zararli anemiya, ayrim gemoglobinopatiyalar, talassemiya, boshqa gemolitik anemiyalar, infektsion mononuklyoz va Karsinom kasalligiga olib keladi. Nuklein kislota aylanishining tezlashishi o'z navbatida, giperurikemiya, giperurikiduriya va purin bioizintezi kompensatsiyasini oshiradi [5,11].

**Giperurikemiya va Podagra tarixi:** Ko'p yillar mobaynida podagra nasldan-naslga o'tadigan kasallik deb hisoblanardi. Bemorlarning taxminan 20% nasliy moyillik sababli kasallananadilar. Zamonaviy tadqiqotlarga asoslanib, shuni aytish kerakki, purin almashinuvi va urat toshlari paydo bo'lishi o'rtasida bog'liqlik mayjud deb qaralmoqda. Ammo, kasallik faqat siydik kislotasining ortiqcha ajralishi natijasida rivojlanmaydi, uning paydo bo'lishi bir vaqtning o'zida buyraklarga yoki har- xil tashqi omillar ta'siri ostida siydikning ajralishi susayib ketishiga sabab bo'lishi mumkin. Giperurikemiya bu artritning malum bir turi bo'lib podagrani rivojlanish faktorlaridan biri hisoblanadi. Podagra tufayli buyrak va bo'g'implarda doimiy shikastlanish kuzatiladi. Podagra va giperurikemiya bir-biri bilan bog'liq bo'lib, qon tarkibidagi siydik kislotasining yuqori miqdorda bo'lishi va kristalining periartikulyar to'qimalarida cho'kishga olib keladi. Urat kislotasi, qon oqimida qo'shimcha suyuqlik bo'lib kirib, uni buzadigan kristallar hosil qiladi. Podagra belgilaridan biri o'tkir yallig'lanishliy jarayonlar, shikastlangan hududda terining qizarishi, shish va og'riq, bir tomonlama zararlanish kuzatiladi. Shuning uchun giperurikemiya va podagrani bir vaqtning o'zida davolash kerak deb qaraladi. Giperurikemiya belgilari kasallikning kelib chiqishiga qarab ifodalanadi va asosiy sabab urat kislotasi darajasining oshishi deb qaraladi. Shuning uchun, giperurikemiyani tog'ri davolash uchun kasallikning rivojlanish sabablari va shakllarini aniqlash bilan to'g'ri diagnostika qo'yish talab etiladi [9,12].

## ГИПЕРУРИКЕМИЯ



 MyShared

**2- rasm. Giperurikemiya kasalligi belgilari.**

So'nggi yillarda bu kasallikka juda ko'p e'tibor berilmagan, chunki u aholining kam sonli kishilarida tarqalgan edi. Hozirda ushbu patologiyaning yurak-qon tomir kasalliklariga ta'siri yuqori ekanligini mutaxassislar tadqiqotlar natijasida aniqlashmoqda. Giperurikemiya belgilari asosan nospesifikdir. Giperurikemianing asosiy belgilari bu- biokimyoviy qon testida siydik kislotasi darajasining oshishi bilan aniqlanadi. Kasallik davom etsa, bu giperurikemianing klinik ko'rinishi bo'lib podagrani keltirib chiqaradi [10]. Podagra - bo'g'imlarning kasalligi bo'lib, etiologiyasida modda almashinuvi buzilishi, purin birikmalari almashinuvi muvozanatining buzilishi va organizmda siydik kislotasining to'planishi yotadi. Surunkali podagraning belgilari bo'yicha birinchi ilmiy tavsif 1865- yilga borib taqaladi. Sindegam Tomas 30-yil davomida bu kasallikdan azob chekib, «**Podagra qonunlari**»

degan kitob yozadi, bu kitobda podagra nima? podagraning surunkali bosqichining klinik belgilari, o'tkir podagra tavsifi batafsil yozib o'tilgan [15].

## **1.2. Giperurikemiya kasalligini keltirib chiqaruvchi omillar**

Giperurikemiya modda almashinuvida purin moddasining ishtirok etishi, ovqatda ko'p miqdorda fruktoza mavjudligi yoki buyrak faoliyatining pasayishi tufayli siydik kislotasi hosil bo'lishining tezlashishi natijasida rivojlanadi. Puringa boy oziq-ovqat iste'mol qilish - giperurikemianing asosiy omillaridan biridir. Oziq-ovqatga bog'liq yana bir sababi - yuqori kaloriyalı va yog'li ovqatlar iste'mol qilish, shuningdek ochlik. Ochlikni natijasi shundaki, energiya olish uchun organizm tananing mushak massasini yoqa boshlaydi va bu jarayon davomida chiqarilgan purinlar qon oqimiga o'tadi. Oziq-ovqatlardagi purinli asoslarning tarkibi turlicha. Adenin va gipoksantinning purinli asoslari yuqori miqdorda bo'lgan oziq-ovqatlar giperurikemianing kuchayishiga yordam beradi. Kishiga siydik kislotasini parchalaydigan ferment-uratoksidaza kerak.

Siydik kislotasi darajasining oshishi podagra rivojlanishiga moyillikni oshiradi va juda yuqori darajada bo'lganda buyrak yetishmovchiliga olib keladi. Odatiy anomaliyalardan qat'iy nazar (genetik tarkibiy qism bilan), neoplazmalarning parchalanish sindromi deyarli har doim ko'p miqdorda siydik kislotasi chiqarilishi bilan kechadi va bu o'z navbatida buyrak yetishmovchiliga olib keladi. Lyosha-Nixen sindromi ham siydik kislotasining juda yuqori darajalari bilan bog'liq. Metabolik sindrom ko'pincha giperurikemiya bilan ifodalanadi. Buyrakli giperurikemiyada filtrlovchi kanal funksiyasi buzilishi sabablidir. Kasallikning rivojlanish bosqichlari qanday bo'lishidan qat'iy nazar, boshlang'ich mexanizmlari tegishli organlarning filrlash kanallarini funksiyalarining nuqsonlari hisoblanadi. Orttirilgan shaklning sabablari ko'pincha quyidagilar:

- Keksa odamlarda ateroskleroz va buyrak tomirlarining sklerozlanishi;
- Qandli diabet;
- Gipertoniya;

- Diuretiklar (siyidik haydovchilar) yoki aspirin kabi ba'zi dorilar bilan uzoq muddat assosiz davolanish natijasi [13,17].

### **Giperurikemiya cassalligini keltirib chiqaruvchi omillar quyidagilar:**

Giperurikemiya kasallligining buyrak tipdagи sabablariga 3 ta asosiy omil:

- Purinning metabolizmida ishtirok etishi;
- Ozuqada fruktoza miqdori yuqori bo'lishi va siyidik kislotasini ortiqcha ishlab chiqarishi;
- buyrak funktsiyasi buzilishi oqibatida siyidik kislotasining ekssedatsiyasi buzilish sababli.

Giperurikemiyani keltirib chiqaradigan sabablardan biri qon tarkibida, urat kislotasining ko'payib ketishi natijasida yuzaga keladi. Buning natijasida siyidik kislotasining ortiqcha to'planishi natijasida metabolik giperurikemiya sodir bo'ladi. Agar siyidik kislotasi ajralishi buyraklar tomonidan buzilgan bo'lsa, buyrak buzilishli giperurikemiya aniqlanadi. Buyrak buzilishli giperurikemiya irsiy moyillik sifatida rivojlanishi ham mumkin. Ikkala holatda ham kasallikning rivojlanishi buyrak funktsiyasi filtratsiya buzilganda sodir bo'ladi. Giperurikemiyaga sabab odatda, buyrak tomirlari devorlarining shilimshiq to'qimalarining torayishi oqibatida asosan keksalarda uchrab turadi. Bundan tashqari, giperurikemiyani quyidagi kasalliklar ateroskleroz, arterial gipertenziya, diabet mellitusi ham keltirib chiqaradi. Ko'pincha aspirin va diuretiklar yoki boshqa preparatlarni uzoq muddatli va ba'zan asossiz ishlatish ham giperurikemianing rivojlanishiga olib keladi. Siyidik kislotasi ajralishining buzilishi oqibatida, buyraklarda qum va toshlar hosil bo'lishi ham kuzatiladi. Purin metabolizmini buzilishidan, podagra rivojlanadi bu yallig'lanishliy bo'g'im kasalligi bo'lib, deformatsiya va o'tkir og'riq bilan kechadi. Giperurikemiya sabablari qon va limfa tizimi kasalliklari bo'lgan, psoriasis, sarkoidoz va buyrak vazifasini buzadigan boshqa omillarni o'z ichiga olishi mumkin.

Giperurikemiyaga asosiy sabab puringa boy yoki kaloriyalı yog'li ovqatlar iste'mol qilinishidir. Spirtli ichimlik ham metabolik jarayonlarga salbiy ta'sir

ko'rsatadi. Bunday mahsulotlar organizmda siyidik kislotasini sintezlashda substratning ortiqcha miqdorini keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, yog'li ovqatlar buyraklar tomonidan uratning chiqarilishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun, patologiyani davolashda, giperurikemiya uchun ovqatlanish ayniqsa muhimdir. Tashxis va klinik ko'rinish ko'pincha giperurikemiya bilan kasallangan bemor hech qanday shikoyat qilmaydi va deyarli asemptomatik bo'ladi. Odatda metabolizmni aniqlash uchun tibbiy ko'rikdan o'tkazilganda aniqlanadi. Giperurikemiya belgilari asosan nonspesifikdir. Bu patologiya bolalarda ishtaxa yo'qolishi, kechki enurez, qorin og'rig'i, haddan tashqari terlash, logoneuros bilan namoyon bo'ladi. O'smirlarda siyidik yo'llarida qichishish, bel og'rig'i, ortiqcha vazn, o't yo'llarining diskinezi kabi giperurikemiya belgilari mavjud. Shuningdek, intoksikatsiya va asteniya belgilari simptomatologiyaga qo'shilishi mumkin. Giperurikemiya bilan og'igan bemorlarda ovqat hazm qilish tizimining turli patologiyalari va miyokarddagi metabolik anormallik belgilari ko'pincha tashxis qilinadi [14,19].

Giperurikemiyada - siyidik kislotasi miqdorini kamaytirishga qaratilgan muayyan parvez ko'rinishdagi farmakologik va nofarmakologik davolash mavjud. Giperurikemiya kasalligining buyrak tipi irsiyatga bog'liq bo'lishi ham mumkin. Buyrak funksiyasidagi filtr kanallar yo'naltiruvchi mexanizmning buzilishi, giperurikemiya simptomi sabablidir. Buyrak giperurikemiyasi tabiatiga ega bo'lgan asosiy belgi bu ateroskleroz, diabet, gipertoniya yoki diuretiklar va aspirin kabi ba'zi dori-darmonlarni uzoq vaqtadan beri noto'g'ri qo'llash natijasida buyrak tomirlarining skleroziga olib keladi. Giperurikemiyaning sabablari kasalning qon hujayralarida paydo bo'lishi mumkin, bu hujayra yadrosidagi nukleotidlarning massa parchalanishi bilan birga bo'ladi va bu limfatik tizimning turli kasalliklari, qon kasalliklari, sarkoidoz, psoriyaz va boshqa patologiyalarda buyrak bo'shliqlariga ajratmalar chiqadi [16].

Kasallikning rivojlanish shartlaridan qat'iy nazar, boshlang'ich mexanizmlari tegishli organlarning kanalli filtrlash funktsiyalarining nuqsonlari hisoblanadi. Orttirilgan shaklning sabablari ko'pincha quyidagilar:

- Keksa odamlarda ateroskleroz va buyrak tomirlarining sklerozlanishi;
- Qandli diabet;
- Gipertoniya;
- Diuretiklar (siydk haydovchilar) yoki aspirin kabi ba'zi dorilar bilan uzoq muddat assosiz davolanish natijasi.

Bundan tashqari, hujayra yadrosidagi nukleotidlarning parchalanishi bilan kechadigan turli qon kasalliklari - limfa tizimi kasalliklari, sarkoidoz, psoriaz va buyraklar ekskretsiyasini buzishi mumkin bo'lgan boshqa patologiyalar kasallik rivojlanishi uchun sharoit yaratib beradi [20].

**Podagraning rivojlanishi sabablari:** Tananing yumshoq to'qimalarida tuz kristallari shakllanishi va yig'ilib qolishiga sabab bo'ladigan qonda siydk kislotasining barqaror oshib borishi–podagra rivojlanishining yagona sababidir. Giperurikemianing boshlang'ich bosqichi, ya'ni sidiyk kislota darajasining oshishi tuz kristallari shakllanishiga va yig'ilib qolishiga sabab bo'lmaydi, lekin modda almashinuvidagi jiddiy buzilishlardan dalolat beradi, bu esa ushbu kasallikning dastlabki belgisidir. Siydk kislota konsentratsiyasining o'sishiga bir necha omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin. Asosiyлари-ирсиy moyillik, organizmga oziq-ovqat bilan ko'p miqdorda purin birikmalari tushishi, purinlar katabolizmining (parchalanishining) ko'payishi, shuningdek, disfunktional yoki yosh bilan bog'liq siydk orqali siydk kislotasini chiqarib yuborish jarayonining sekinlashuvi hisoblanadi.

**Patogenezi** - Podagraning rivojlanishi asosida giperurikemiya yotadi. Normada qonda uratlarni miqdori ayollarda 6-mg %, erkaklarda esa 7-mg % ni tashkil qiladi. Shuni takidlash kerakki, bu miqdordagi siydk kislotasining miqdori –kontsentratsiyasi suvdagi to'yingan eritmadagiga qaraganda, ko'proqdir. Bu shunga bog'liqki, siydk kislotasining bir qismi oqsillar va qonning boshqa bazi tarkibiy qismlari bilan birikkandir.Qon va to'qimalarda

siyidik kislotasining miqdori ozroq ko'tarilsa ham, (9mg %) uratlarning kristallari hosil bo'ladi. 90% odamlarda podagraning klinik belgilari yuzaga keladi. Podagraning rivojlanishi asosiy mexanizlaridan biri purin asoslarini sintezini va parchalanishini oshishi natijasida uning metabolik formasi yuzaga keladi. Siyidik kislotasini oshib ketishini buzilishi natijasida podagraning buyrak formasi rivojlanadi. Birlamchi podagra aloxida kasallik bo'lib, uning sabablari:

- Siyidik kislotasini xosil bo'lishida qatnashuvchi fermentlarning aktivligining buzilishi;
- Uratlarni siyidik bilan chiqarish mexanizmlarini buzilishi;
- Irsiy faktorlar, kasallarning qarindosh-urug'larida podagra uchraydi, xamda asosan erkaklar og'riydi.

Ikkilamchi podagra boshqa kasalliklarning ko'rinishlaridan biri ayrim dori-darmonlarning qo'llanilishining oqibati bo'lishi mumkin. Uning sabablari:

- Nuklen kislotalarini intensiv almashinushi (masalan, mieloleykozlarda, gemoglabino patiyalarda, sporiazda);
- Sitotaksik dorilar ta'sirida nukleoproteidlarni parchalanishi;
- Surunkali buyrak yetishmovchiligidagi uratlarni siyidik bilan chiqishini sekinlashishi.

### **Klinik belgilarining patogenezi:**

1. Mayda bug'indan, ayniqla, oyoq bosh barmog'ini qayta-qayta yallig'lanishi bug'in bo'shlig'iga uratlarni yig'ilishidan boshlanadi. Uratlarni mikrokristallarini shikastlovchi ta'siridan Xageman faktori komponentlarining aktivligi ortishi natijasida tomirlar o'tkazuvchanligini ortadi. Natijada bu erga neytrofillarni kelishi ko'payadi. Bu kristallarni fagositozlanishi lizasomal fermentlarni ajralishi bilan boradi. Natijada, ikkilamchi alteratsiya kuchayib, yallig'lanish rivojlanadi.
2. Podagra tugunlari mayda bug'indan, paylar, tog'aylar va terida bo'ladi. Tofus ustidagi teri yemirilib undagi uratlar kukini to'kilib turadi.
3. Yurak etishmovchiligidagi rivojlanishi. Uzoq vaqt davom etadigan giperurikemiya natijasida buyrak yetishmovchiligi kelib chiqadi.
4. Siyidik tosh kasalliklarida – urolitiazda asosiy potogenetik ro'lni

siyidik bilan siyidik kislotasini ko'p cho'kishi o'ynaydi [26,27].

### **Alomatlari**

Dastlabki bosqichda interstsial tipdagi nefrit shakllanib, u bakterial infektsiya ta'siri ostida ikkilamchi pielonefritga aylanishi mumkin. Agar qulay sharoitlar mavjud bo'lsa, buyraklarda tosh hosil bo'ladi. Siyidik kislotasi immun tizimining funktsiyalariga ta'sir qiladi. Shuning uchun asosiy simptomatikaga tananing himoya xususiyatlarining pasayishi ham kiradi, Buning fonida bemorlarda ko'pincha glomerulonefrit rivojlanishi mumkin. Shuningdek, ushbu patologiyaga qorin og'rig'i sindromi hamroh bo'lishi mumkin. Giperurikemiya podagra rivojlanishi uchun xavfli omillaridan biri hisoblanadi. Yosh bolalarda giperurikemiya quyidagicha namoyon bo'ladi:

- Artralgiya;
- Mushaklardagi og'riq;
- Tungi enurezlar;
- Terlashning ko'payishi;
- Safro yo'llari diskineziyasi;
- Astenik sindrom;
- Intoksikatsiya.

Homiladorlik davrida kasallik homilada ko'plab patologiyalar rivojlanishiga sabab bo'lishini ta'kidlash ham muhimdir.

**Tashxislash:** Qonda siyidik kislotasi miqdorini aniqlash uchun tadqiqotlar o'tkaziladi. Bundan tashqari, buyrak funktsiyasi (kreatinin, mochevina), oshqozon-ichak trakti faoliyati (bilirubin, amilaza, AST, ALT, ishqorli fosfataza) baholanadi. Podagra rivojlanishiga shubha qilingan bo'lsa, shikastlangan bo'g'implarning rentgenografik surati olinadi. Na'munalarni olish arafasida quyidagi qoidalarga rioya qilish muhim hisoblanadi: sinovdan oldin 7-8 soat davomida oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilishni cheklash, 3-4 kun davomida spirtli ichimliklar va oqsillarga boy taomlarni iste'mol qilmaslik. Tadqiqotlar natijasi tahlil qilish uchun qon topshirilganidan taxminan bir kun o'tib tayyor bo'ladi [18,22].

## **Giperurikemiya va Podagrani davolash va oldini olish usullari:**

Terapiya albatta keng qamrovli bo'lishi kerak. Birinchi navbatda tarkibida yuqori miqdorda purin bo'lgan mahsulotlarni butunlay chiqarib tashlangan parhezga rioya qilish kerak. Taomnomada spirtli ichimliklar va pivo, qovurilgan, dimlangan, pechda pishirilgan taomlar, qaynatma sho'rvalar, yurak, buyraklar, jigar, kolbasa mahsulotlari, turli dudlangan, konservalangan mahsulotlar va dukkaklilar no'xat, loviya, bo'lmashligi kerak. Podagra kasalligida tutilishi kerak bo'lgan parhez giperurikemiya uchun mos keladi. Bundan tashqari, parhezga amal qila turib, ismaloq, otquloq, pishloq, rediska, kakao, shokolad, gulkaram iste'mol qilish qarshi ko'rsatiladi. Shu bilan birga, keyingi oziq-ovqatlarni taomnomaga kiritish tavsiya etiladi: tovuq, quyon, kurka go'shti, turli vegetarian sho'rvalar va «ikkinchisi» go'sht yoki baliq bulyonida tayyorlangan birinchi taomlar, sut va achitqi sut mahsulotlari, meva, ko'katlar, sabzavotlar. «Yengillik kunlari» haftada bir martta amalga oshirilishi kerak. Medikamentoz fiziatriya holatida probenetsid qo'llaniladi, bu zararli moddalar darajasini pasaytiradi, shuningdek ksantinoksidaza ingibitorlari, «Allopurinol», «Aquaretics», «Febuxostat» preparatlari buyuriladi. Giperurikemiyani davolashda kuniga 2-2,5 litr suv ichish tavsiya etiladi. Ko'p miqdordagi suyuqlik siydiq konsentratsiyasini kamaytiradi va buyraklarda tosh shakllanishini oldini oladi.

Suvga biroz limon sharbati qo'shish yanada yaxshiroq. Organizm tomonidan ishlab chiqariladigan yoki oziq-ovqat bilan tushadigan purin asoslarining parchalanishi murakkab jarayondir va bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Har qanday bosqichdagi buzilishlar siydiq kislota to'planishiga va buzilish turiga qarab podagraning jadal yoki bosqichma-bosqich rivojlanishiga olib keladi. Yaqqol namoyon bo'ladigan alomatlar kasallikning o'tkir xurujlari davrida namoyon bo'ladi va ungacha bemor o'zida faoliyat buzilishlari, kasallik mavjudligi haqida bilmasligi mumkin. Podagraning etiologiyasi davo tamoyillarini belgilaydi. Boshqa patologiyalar va kasalliklar tufayli yuzaga kelgan ikkilamchi etiologiyali podagrani faqat birlamchi kasallikni bartaraf etish orqali davolasa bo'ladi. Fermentopatiyalı (ferment yetishmasligi) irsiy

podagrada davolash alomatlarni bartaraf qilish uchun qaratilgan bo'ladi. Kasallikning oldini olish uchun taomnomani achitqi sut mahsulotlari: yog'siz kefir, tvorog, qaynatilgan shakldagi yog'siz go'sh yoki baliq (haftasiga 4 martadan ko'p bo'limgan), tuxum, meva, sharbat, kompot, sabzavot, sabzavotli sho'rva, na'matak va bug'doy kepagi damlamalari bilan to'ldirish kerak [21,24].

**Giperurikemiya va Podagra uchun ishlatiladigan preparatlar**

Podagrani davolash uchun dori vositalarini tanlashda shifokor kasallikning shakli, bosqichi va sababi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanadi. Podagrani uy sharoitida mustaqil davolash yo'lidagi urinishlar salomatlikni jiddiy yomonlashuvi, kasallikning tez rivojlanib ketishi va boshqa muammolarga sabab bo'lishi mumkin.

Podagra uchun tanlangan birinchi dorilar guruhlari podagraga qarshi va yallig'lanishga qarshi preparatlardir. Antipodagrik preparatlar (uricodepressantlar va urikozuriklar) purinlarni qayta ishlashni jadallashtirish va purin asoslari parchalanishi natijasida paydo bo'lgan mahsulotlarni tezroq yuvib chiqarishga qaratilgan. Ba'zi hollarda mutaxassis aralash ta'sirga ega preparatlarni buyurishi mumkin, masalan o'tkir podagra xuruji boshlanishida kolxitsin in'yektsiyasi. O'tkir davrlarda bo'lgani kabi, remissiya davrida ham yallig'lanishga qarshi preparatlarni qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Podagrda eng ko'p ishlatiladigan yallig'lanishga qarshi dorilarga nosteroid dorilar (Indametatsin, Fenilbutazon va boshqalar) va glyukokortikosteroидлар (ko'pincha Prednizolon) kiradi. Ushbu preparatlarni qo'llash shikastlanish joyida yallig'lanish, og'riq va to'qimalarning shishishini kamaytiradi. Podagraning shakli va bosqichiga qarab fizioterapevtik muolajalar buyurilishi mumkin: ultrabinafsha nurlanish, elektroforez, parafin va ozokerit bilan qizdirish va hokazo [23,25].

**Giperurikemiya va Podagra profilaktikasi:** Podagrani oldini olish bu kasallikning paydo bo'lishi va rivojlanishi uchun moyilligi yoki irsiy xavfi mavjud bo'lgan odamlar uchun ayniqlsa muhim hisoblanadi. Birlamchi podagra qonda purin asoslari konsentratsiyasining oshishi fonida rivojlanadi, shuning

uchun ovqatlanishdagi cheklov larga amal qilish nafaqat kasallikni davolash, balki oldini olish chorasi sifatida ham qaraladi.

So'g'lom turmush tarzi va muntazam shifokor ko'riganidan o'tib turish ham podagrani oldini olish chorasidir. Podagra rivojlanishiga turki bo'luvchi xavf omillariga doimiy ochlik (vazn tashlash yoki sog'lomlashtirish uchun bo'lsa ham), tezda vazn yo'qotish, ba'zi preparatlarni qabul qilish (sitostatiklar, har qanday shakldagi siydik haydovchi preparatlar [tabletkalar, o'tlar, choylar]), ko'p alkogol ichimliklari ichish, jarohatlar, depressiya, yuqumli kasalliklar va boshqalar kiradi. Kasallik tashxisi mavjud bo'lganda ham ushbu profilaktik choralar kasallikni yengillashtirishi, rivojlanishini sekinlashtirishi yoki to'xtatishi, umumiy ahvolni yaxshilashi mumkin [28].

### **1.3. Giperurikemiya kasalligida biokimyoviy o'zgarishlar**

Hozirgi vaqtda insonlarda natriy xloridni ortiqcha iste'mol qilinishi giperurikemiya, gipertenziya rivojlanishiga olib kelishi bilan birgalikda turli yurak-qon tomir kasalliklarining asoratlari xavfini sezilarli darajada ortishiga sabab bo'lmoqda deb qaralmoqda. Bundan tashqari, hujayra yadrosidagi nukleotidlarning parchalanishi bilan kechadigan turli qon kasalliklari - limfa tizimi kasalliklari, sarkoidoz, psoriaz va buyraklar ekskretsiyasini buzishi mumkin bo'lgan boshqa patologiyalar kasallik rivojlanishi uchun sharoit yaratib beradi. Purin moddasiga boy oziq-ovqatlar muntazirligi va umumiy aholi o'rtasida alkogol ichimliklarni ko'p iste'mol qilinishi ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Shuningdek podagra tashxisi «yosharishi» ham kuzatilmogda: agar kasallik oldinlari 35-45 yoshli erkaklarda uchragan bo'lsa, hozirda ushbu chegara 30-yoshni tashkil etadi [29,30]. Statistika malumotlariga qaraganda, katta yoshdagi axolini 0,04-0,37% shu kasallikka duchor bo'lar ekan. Bu kasallik bilan asosan erkaklar (93-98%) og'rib ko'pincha 35-50 yoshdan boshlanadi. Bu kasallik purinlar almashinuvining buzilishidan kelib chiqadi, qonda siydik kislotasining miqdorini oshishi va uratlarni to'qimalarda yig'ilishiga olibkeladi. Turli yoshdagи insonlarda podagradan odatda kattalar

aziyat chekadi. Statistikaga ko'ra, sayyoramizdagi katta yoshdagi kishilarning 0,1% podagradan aziyat chekmoqda va rivojlangan mamlakatlarda (G'arbiy Evropa, AQSh) podagradan aziyat chekayotgan odamlarning soni 2% ga yaqin. Lekin mutaxassislar kasallikning haqiqiy sur'ati statistik ma'lumotlardan farq qiladi deb hisoblashadi, chunki bemorlarning kech tashxislanishi statistikani to'liq o'rganishni murakkablashtiradi. Tadqiqotchilar shuningdek, XX asrgacha ba'zi bir istisnolar bilan faqat erkaklarning kasalligi deb hisoblangan, podagra kasalligi hozirgi vaqtida har ikki jinsda kuzatilishi mumkinligini ta'kidlashmoqda. Lekin bemor erkaklar va ayollar nisbati hali-hanuz bir xil emas: 20ta erkak bemorga 1 ta ayol bemor to'g'ri keladi. Ayollarda podagra tashxislanishi ortishining sababi hayot sifati yaxshilanishi hisoblanadi [31,33,34].

**Giperurikemiya va Podagra rivojlanishida siydik kislotasi kontsentrasiyasining o'sishi o'rtasidagi bog'liqlik:** Oziq-ovqat bilan organizmga kirib keladigan purin asoslarini qayta ishslash yoki tana hujayralarining nobud bo'lishi natijasida siydik kislotasi hosil bo'ladi. Bu aralashma buyrak kanalchalarida filtrlanadi va odatda siydik bilan organizmdan chiqarib tashlanadi. Agar biron bosqichda buzilishlar yuz bersa (siydik kislotasini ko'p ishlab chiqarish, uni organizmdan chiqarib tashlay olmaslik) giperurikemiya rivojlanishi uchun sharoit paydo bo'ladi. Shuni yodda tutish kerakki, «giperurikemiya» tashxislanishi podagra mavjud degani emas, chunki siydik kislotasining oshishi boshqa kasalliklar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Biroq giperurikemiya podagrali jarayonlarning rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Podagrada siydik kislotasi kaltsiy, natriy, kaliy va boshqa elementlar bilan reaksiyaga kirishib, kristall birikmalar yoki uratlarga aylanadi. Uratlar asosan ikki hududdagi to'qimalarda to'planadi:

- Siydik ajratish a'zolarida (buyrakdagi toshlar, siydik yo'li toshlari);

➤ Bo'g'imlar yumshoq to'qimalari, bo'g'im atrofi to'qimalarida. Ushbu to'qimalarda qon aylanishining o'ziga xos xususiyatlari tufayli uratlar u yerga tushib, cho'kindi bo'lib to'plana boshlaydi [32].

**Nukleotidlarning ahamiyati:** Ma'lumki, nuklein kislotalarining polimerlaridan iboratdir. Nukleotidlarning 3 tarkibiy qismi bor: (purin yoki pirimidin) asosi, pentoza va fosfat kislotasi. Purin asoslari adenin va guanin kiradi. Pirimidin asoslari uratsil, timinva sitozindir. Mono-, di-, trifosfonukleotidlarga AMF, ADF, GMF, GDF, GTF lar kiradi. ATF organizmda energiya o'zgarishlarida muxim ro'l o'ynaydi. Adenilat kislotasi qoldiqlari NAD, NADF, FAD, KoAlar kofermentlar tarkibiga kiradi. Siklik AMF va GMF lar hujayra ichidagi effektor sistemalarga gormonal xamda boshqa signallarni o'tkazishda vositachi hisoblanadi. Organizmning hamma hujayralari nukleotidlarni sintezlay oladi. Nukletidlarni o'zgarishi natijasida to'qimalarda tinmay adenin va guanin hosil bo'lib turadi. Ular yana nukleotidlar sinteziga ishlatalishi mumkin. Purin va nukleotidlarning katabolizmi natijasida AMF dan gipoksantin, GMF dan ksantin hosil bo'ladi. Ularning parchalanishi natijasida siydk kislotasi (urat kislotasi) hosil bo'ladi [37,40].

**Purinli nukleotidlar biosintezi.** 1948 - yilda Byukenen hayvonlarga turli radioaktiv moddalarni berish orqali sintezlanayotgan purin halqasida, radioaktivlik joylashishini aniqlab, o'tmishdoshlarning tabiatini organishga muvaffaq bo'ladi. Glitsin 4,5 uglerod va 7 azot atomining o'tmishdoshidir. Formil radikali tetragidrofolat ishtirokida 2 va 8 uglerod atomlarining ham o'tmishdoshi bo'ladi. Glutamin amid guruhining azoti 3 va 9 holatlarda joylashgan azotning manbaidir. Asparagin kislotasi o'zining azot atomini 1-holatda joylashgan azotga beradi. CO<sub>2</sub> 6 uglerod atomining o'tmishdoshi hisoblanadi. Sintez davrida purin asoslari emas, balki birdaniga nukleotid sintezlanadi. Biositez riboza 5 fosfat va ATFdan 5 fosforibozil-1-difosfat hosil bo'lishidan boshlanadi. Bu reaksiyani 5-fosforibozilpirofosfat-amidotransferaza katalizlaydi.

Uning 2 ta allosterik ingibirlanish qismi bo'lib, 2 guruh oxirgi mahsulotlar:

1. ATF, ADF, AMF
2. GTF, GDF, GMF

yordamida ingibirlanadi. Bir qancha reaksiyalar natijasida inozinat kislota hosil bo'ladi va undan GMF va AMF sintezlanadi. GMF ikki bosqichda sintezlanadi. Avval inozin kislota IMF de-gidrogenaza ishtirokida 2-uglerod atomi bo'yicha oksidlanib ksantin kislota (KMF) hosil bo'ladi. Keyin bu uglerod atomi GMF sintetaza ishtirokida glutamin hisobiga pereaminlanadi. Bu reaksiya uchun energiya manbai bo'lib ATF hisoblanadi. AMF inozin kislotaning AMF-sintetaza ishtirokida asparagin kislota hisobiga pereaminlanishi sababli vujudga kelgan. Reaksiya GTFning GDFgacha gidrolizlanishi natijasida hosil bo'lgan energiya hisobiga boradi. Boshqarilish 2 yonalishda amalga oshiriladi: GTF ko'payishi AMF sintezini, ATFning ko'payishi esa GMF sintezini faollashtiradi [51,52].

To'qimalarda nukleotidlarning parchalanishi natijasida erkin purin asoslari adenin va guanin hosil bo'lib turadi. Adenin-fosforiboziltransferaza va gipoksantin-guaninfosforiboziltransferaza fermentlari ishtirokida ulardan nukleotidlar qayta sintezlanishida foydalaniladi:




Ikkinci ferment substrat tariqasida gipoksantindan foydalanishi mumkin:



Azotli asoslarning metabolizmga qayta qo'shilish yo'liga «qutqarish yo'li» deb ataladi.

**Purinli nukleotid biosintezining idora etilishi:** 5-fosforibozilamin hosil bo'lish reaksiyasi purinli nukleotid biosintezini cheklab qo'yuvchi bosqichdir. Ana shu reaksiyani katalizlaydigan ferment adelinat va guanilat kislotalar ta'sirida ingibirlanadi. Bundan tashqari shu metabolizm zanjiri uning tarmoqlanish joyida idora etib boriladi: AMF adenilosuksinat hosil bo'lish




**3- rasm. Purinli nukleotidlarning adenin va guanindan biologik yo'l bilan sintezlanishi.**

reaksiyasini, GMF esa ksantilat kislota hosil bo‘lish reaksiyasini ingibirlaydi (3 -rasm). Idora etishning bu mexanizmi AMF va GMF sintezi tezligini zarur darajada saqlab berishni ta’minlaydi.



**4- rasm Purinli nukleotidlar sintezining boshqarilishi.**

**Purinli nukleozidlar katabolizmi.** Purinli nukleozidlar katabolizmi riboza qoldig‘i hamda aminogruppani gidrolitik yo‘l bilan ajratib olish reaksiyalarni o‘z ichiga oladi. Gipoksantinning ksantinga va ksantining siydik kislotaga aylanishi ksantinoksidaza ta’siri ostida o’tadi; bu reaksiyalarda kislorod molekulasidan foydalaniladi. Uning bir atomi puringa, ikkinchisi esa vodorod peroksidga qo‘shiladi:



Siydik kislota asosan jigarda hosil bo‘ladi, purinli nukleotidlar katabolizmining asosiy mahsulotidir. Odam organizmida 1 sutkada 0,5- 1g siydik kislota hosil bo‘ladi, buyraklar orqali chiqarib turiladi. Sog’lom odam qonida 3-7 mg/dl siydik kislota bo‘ladi, uning konsentratsiyasining ko’payishi (giperurekemiya) podagra kasalligiga olib keladi. Siydik kislota suvda yomon eriydi, qonda oqsil vaboshqamoddalar bilan birikkan holda bo‘ladi. Podagra kasalligida mayda bog‘imlarda takrorlanuvchi o‘tkir yalliglanish kuzatiladi (podagra krizlari). Ko’pincha kasallik oyoq bosh barmog‘ining birinchi bog‘imini yallig‘lanishidan boshlanadi. Kriz vaqtida bemor ogriq kuchli

bo'lganligidan, hatto choyshab tegib ketishiga chiday olmay qoladi. Kasallik xuruji soatlab davom etadi vabir necha oydan keyin yana takrorlanadi. Kriz davrida siydik kislotaning mononatriyli tuzi kristallari bog'imda to'planadi. Urat kristallarini leykotsitlar fagositlaydi. Kristallar ta'sirida lizosoma membranalari yemiriladi. Ajralib chiqqan lizosoma fermentlari hujayralarni yemirib tashlaydi. Hujayra parchalanishing mahsulotlari esa yalliglanishga sabab bo'ladi.

Uratlarning to'planib ko'payib borishi natijasida podagra tugunlari (tofuslar) paydo bo'ladi. Ular ko'pincha mayda bog'inlar, paylar, tog'ay terida to'planadi. Tofus ustidagi teriatrofiyaga uchrab yemiriladi va uratlardan tashkil topgan kukun to'kilib turadi. Bog'implarda tugunlar paydo bo'lishi ularning shaklini o'zgartirib, funksiyasini izdan chiqaradi. Buyrak to'qimalarida uratlar to'planib qolishi buyrak yetishmovchiliga podagraning ko'p uchraydigan asoratiga olib keladi. Uratlardan buyrak toshlari ham hosil bo'lishi mumkin. Podagra keng tarqalgan kasallikdir: turli mamlakatlarda katta yoshli aholining 0,3 dan 1,7 % gacha bo'lган qismi ushbu xastalik bilan og'riydi. Erkaklar orasida bu kasallik ayollarga qaraganda 20 baravar ko'proq uchraydi.

Giperurikemiya asosan irsiy bo'ladi. Giperurikemiyaning og'ir xili Lesh-Nixan sindromi X-xromosoma bilan tutashgan retsessiv belgi sifatida nasldan-naslga o'tib boradi (o'g'il farzandlarda namoyon bo'ladi). Bunday bolalarda serebral falajlar ham kuzatiladi, aql - idroki o'zgargan bo'ladi, ular o'zlariga jarohat yetkazadilar, lab, barmoqlarini tishlab qonatadilar. Bu kasallik «qutqarish yo'li» da qatnashuvchi gipoksantin-guanin-fosforiboziltransferaza fermentining normadagiga nisbatan bir necha ming baravar kamroq bo'lishi bilan bog'liqdir. Shuning uchun gipoksantin va guanin nukleotidlar sinteziga sarflanmasdan urat kislotaga aylanadi va giperurikemiyaga olib keladi.



##### **5- rasm Nihan sindromida purinli nukleotidlar metabolizmining bloklanishi.**

Podagrani davolashda allopurinoldan foydalaniladi, u gipoksantinning strukturali analogidir. U ksantinoksidazaning raqobatli ingibitori bo‘lib, kuniga 0,2-0,8 gr miqdorda qabul qilinsa, siydik kislotaning qondagi miqdori normal raqamlargachapasyadi. Gipoksantin miqdori esa ortadi, lekin siydikda siydik kislotaga qaraganda on baravar yaxshi eriydi va organizmdan oson chiqariladi. Umuman olganda ikkilamchi giperukemiya va podagra kam uchraydi. Qon va buyraklarning ba’zi kasalliklarida, qorg’oshindan zaharlanishda, ba’zi dori moddalarni ichish tufayli boshlanadi. Ikkilamchi giperurikemiyalarga odatda siydik kislotani chiqarib tashlashning izdan chiqishi yoki purinli nukleotidlar metabolizmi fermentlarining tashqi omillar ta’sirida zararlanishi sabab bo‘ladi [53,54].

**Giperurikemiya va Podagranirivojlantiruvchi omil sifatida purin nukleotidlarini sintezini oshishi.** Siydik kislota paydo bo’lishiga olib keladigan purin asoslarining parchalanishi odatda barqaror tezlik bilan kechadi, tezlikni ferment miqdori belgilaydi. Turli sabablarga ko’ra organizmdagi purin miqdorining ko’payishi kuzatilsa, sintez tezligi oshadi va qonda siydik kislotasi miqdori baland bo’lib ketadi.

Bu jarayon vaqtincha va qayta tiklanuvchi tabiatga ega bo’lishi yoki surunkali kasalliklar, ovqatlanish ratsionining barqaror emasligi tufayli uzoq davom etishi mumkin. Nuklein asoslar sintezining kuchayishiga sitostatiklarni

uzoq vaqt qabul qilish, kimiyoterapiya, gemoliz usuli, jarrohlikning ayrim turlari ham sababchi bo'ladi [44].


**Siydik kislotasining organizmdan chiqarilish tezligi:** Podagra ikkilamchi kasallik sifatida buyrak faoliyati buzilishi fonida rivojlanadi. Buyrak naychalarida qayta ishlash va filtrlashdan keyin odatda siydik kislotasi tanadan siydik bilan birga chiqib ketadi. Surunkali buyrak kasalliklarida purin asoslari parchalanish jarayonida paydo bo'lgan mahsulotlarini chiqarib tashlash funktsiyasi buzilishi mumkin, bu esa qonda siydik kislotasi miqdorining oshishiga sabab bo'ladi. Siydik kislotaning chiqib ketishiga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillar- yallig'lanish yoki biriktiruvchi to'qimalarning o'sishi natijasida buyrak kanalchalarining qisman yoki to'liq yopilib qolishidir [39].

**Purinlarni ortiqcha iste'mol qilish.** O'z-o'zidan puringa boy oziq-ovqatlarni ortiqcha iste'mol qilish podagra rivojlanishiga sabab bo'lmaydi, bu vaziyat purinlarni qayta ishlash funktsiyasi yoki uning mahsulotlarini chiqarib yuborish jarayoni buzilganda kasallik rivojlanishi uchun optimal sharoit yaratadi. Maxsus parhez podagrani davolashning bir qismi va uning rivojlanishi yoki kuchayishini oldini olish chorasi sifatida qaraladi, ayniqsa genetik moyillik yoki boshqa xavf omillari mavjud bo'lganda [35].

#### **1.4. Giperurikemiya kasalligini yuzaga kelishida nasliy omillar.**


Purinlarni qayta ishlashni ta'minlovchi fermentlar, oqsillar guruhi insonda ba'zi genlar borligi tufayli sintez qilinadi. Fermentopatiyada organizm sintez jarayonini ta'minlash, turli birikmalarni qayta ishlash uchun fermentlarni kerakli miqdorda ishlab chiqara olmaydi. Purinlarni qayta ishlash va siydik kislotani tanadan chiqarib tashlashni boshqaradigan maxsus oqsil yetishmaganda, qonda zaharli birikmalar konsentratsiyasi oshadi, buning natijasida giperurikemiya va podagra rivojlanishiga olib keladi. Ushbu patologiya nasl surib, ota-onadan bolalarga o'tadi. Podagraning turtki omili hisoblanadigan ferment yetishmovchiligi umumiy genetik metabolik sindromga kiradi, u ortiqcha

vazn, qandli diabet, gipertoniya, giperlipedemiyaga ham sabab bo'ladi. Giperurikemiya kasalligini yuzaga chiqishida bir necha faktorlar mavjud bo'lib, ular quyidagicha keltirilgan [41].



#### 6- rasm Giperurikemiyaning kelib chiqishi.

**Giperurikemiya va Podagrani alomatlari, rivojlanish bosqichlari va kasallik shakllari.** Podagra kasalligining aniq klinik ko'rinishi, sezilarli belgilar va navbatma-navbat keladigan rivojlanish bosqichlari bilan tavsiflanadi. Biroq, ba'zi hollarda alomatlar yetarlicha aniq emas yoki boshqa kasalliklar belgilari ortida yashiringan bo'ladi.



**7- rasm. Podagrik artrit holatlar.**

To'g'ri tashxisni faqat mutaxassis qo'yishi mumkin va podagraning birinchi alomatlari namoyon bo'la boshlagach unga murojat qilish lozim. Davolash olib borilmasa, oziq-ovqatlarda cheklovlar bo'lmasa, tashxis kechiktirilsa og'riq xurujlari tez-tez bo'lib turadi, yallig'lanish ortadi, bo'g'imlar deformatsiyalanadi, siydiktosh kasalliklari rivojlanishi, organizmning tizimli shikastlanishlari, sog'liqning yomonlashuvi, bemorning nogiron bo'lib qolishi uchun sharoit yaratadi.

Giperurikemiya va Podagraning bosqichlari quyidagi ko'rsatkichlarga qarab ajratiladi:

- Kasallikning ma'lum bosqichlariga xos bo'lgan klinik tasviri;
- Qonda siydik kislotasi darjasи;
- Qattiq uratlar, kristalli birikmalar mavjudligi.

Ushbu ma'lumotlar asosida Giperurikemiya va Podagraning uch bosqichdan farqlanadi:

1. Boshlang'ich premorbid bosqich - giperurikemiya bilan tavsiflanadi, qonning biokimyoviy tahlili natijasida aniqlanadi. Bo'g'imlar va siyidik chiqarish tizimi shikastlanishi belgilari kuzatilmaydi, lekin nomaxsus belgilari bo'lishi mumkin: vazn olishga moyillik, ovqat hazm qilish tizimidagi buzilishlar (tez-tez qabziyat, defakatsiyadagi qiyinchiliklar), terining qichishi va boshqalar;
2. Intermittlovchi yoki oraliq bosqich- bo'g'im atrofidagi to'qimalarda tuz kristallarining paydo bo'lishi, kam hollarda buyrak to'qimalarida ham. Bu bosqich og'riq boshlanishi, bo'g'implarning o'tkir yallig'lanishi, podagra xurujlari bilan xarakterlanadi. O'tkir og'riq o'zidan-o'zi yo'qoladi va remissiya (oraliq yaxshilanish davri) boshlanadi, xurujlar 3-7 kun davom etadi. Podagra xurujlari boshlanishiga suvsizlanish, alkogolli ichimliklar ichish, noto'g'ri ovqatlanish, och qolish, sovqotish, o'tkir yuqumli kasalliklar, jarrohlik aralashuvi kabilar turki bo'lishi mumkin;
3. Podagraning surunkali bosqichi –xurujlar va remissiya davrlarining almashinushi bilan kuzatiladi. Bu bosqich interval tofuslar shakllanishi va kichik tuz kristallari birikishi bilan tavsiflanadi. Kasallikga bo'lgan beparvolikka qarab tofuslar hajmi sezilarli darajada bo'lishi mumkin, og'riq berishi mumkin. Bu bosqich shuningdek shikastlangan bo'g'im sohasidagi terining qizarishi, bo'g'im harakatchanligining buzilishi, gipertermiya va mahalliy to'qimalardagi yallig'lanishni ham o'z ichiga oladi. Podagraning surunkali bosqichida ko'pincha siydiktosh kasalligi ham rivojlanadi [36,43].

### **Erkaklardagi podagra xususiyatlari:**

Ayollarga nisbatan podagra erkaklarda ko'proq uchrashi ikki omil bilan tushuntiriladi:

- Kasallikning qisman nasli surishi, u X xromosoma orqali nasldan-naslga uzatiladi, erkaklarda esa ushbu xromosoma bitta (XY) bo'lganligi tufayli boshqa variantlarning mavjud emasligi;
- Erkaklar uchun odatiy bo'lgan noto'g'ri ovqatlanish odatlari va spirtli ichimlik iste'moli.

Erkaklardagi podagraning o'ziga xos xususiyati ushbu jins vakillarining shifokor huzuriga podagraning o'tkir xurujlari davrida yoki kasallik tashqi belgilari paydo bo'la boshlagach, (bo'g'implarning deformatsiyasi va tofuslar shakllangach) borishidir.


**Ayollarda podagraning xususiyatlari:** Ayollarda yumshoq to'qimalarda siydk kislotasi darajasining oshishi va uratlarning tuz kristallari to'planib qolishi bilan kechadigan jarayonlar klimiks davriga xosdir. Ushbu davrda podagra xavfi sezilarli darajada ko'payadi, ayniqsa irsiy moyillik mavjud bo'lsa, shuning uchun ayollardagi podagra ko'pincha 50-55 yoshlik davrda tashxis qilinadi. Shu bilan birga, ayollarning genetik moyilligi erkak jinsidan farqli o'laroq faqat ehtimolli bo'ladi. Purin birikmalarining metabolizmi uchun zarur bo'lган fermentlarni ishlab chiqarish uchun ma'sul bo'lган gen X xromosomada joylashgan bo'lib, bunday xromosomalar ayollarda ikkita bo'ladi (XX). Shuning uchun, agar xromosomadagi bir genga zarar yetkazilgan bo'lsa, uning funktsiyasi boshqa xromosomadagi genning intensiv faoliyati bilan qoplanadi. Agar ikkala gen xam zararlangan bo'lsa, ayollarda podagra rivojlanish xavfi erkaklardagi bilan bir xil bo'ladi (deyarli 100%), kasallik boshlanish yoshi ham sezilarli darajada kamayadi.

**Bolalarda podagraningxususiyatlari:** Organizmda siydk kislota darajasini oshishi - giperurikemiya bolalik davrida birlamchi holat yoki kasallik fonidagi ikkilamchi disfunktsiya hisbolanadi va bu irsiyat tufayli emas. Bolalarda podagra hujayralarning faol nobud bo'lishi oqibatida yuzaga keladi, bu esa o'z navbatida ko'p miqdorda purin ishlab chiqarilishiga olib keladi. Hujayralarning ko'p nobud bo'lishi suvsizlanganda, och qolganda, buyrak yetishmovchiligi yoki buyraklarning boshqa patologiyasida, turli- xildagi o'simtalarning mavjudligida yuz berishi mumkin. Shuningdek, bolalikdagi podagra etiologiyasida to'liq yoki qisman gipoksantin-guanin-fosforibozil-transferaza yetishmovchiligi va fosforibozil-pirofosfat-sintetazaning o'ta faolligi natijasida ham yuzaga kelishi mumkin [42,45].

## 1.5. Giperurikemiya kasalligida GLUT9 genini polimorfizm bilan assotsatsiyasi

**GLUT 9 gening vazifasi:** GLUT9 geni glyukozani transport qiluvchi oqsilni ishlab chiqarishda javobgar gen hisoblanadi. Ushbu oqsil asosan buyraklarda, ayniqsa proksimal tubulalar bilan bog'liq bo'lgan strukturalarda topiladi.Ushbu tuzilmalar qonga kerakli ozuqa, suv va boshqa materiallarni qaytarib olishda va keraksiz moddalarni siydkka chiqarib tashlashda yordam beradi. Proksimal tubulalar orqali GLUT9 oqsillari moddalar bilan siylik kislotani olib o'tishga yordam beradi.Siylik kislotasi organizmdagi ba'zi bir oddiy kimyoviy reaktsiyalar natijasida hosil bo'ladi. Qon oqimida antioksidant bo'lib, erkin radikallar deb atalmaydigan noaniq molekulalarning zararli ta'siridan hujayralarni himoya qiladi. Ammo, organizmda juda ko'p miqdordagi siylik kislotasi, toksik hisoblanib, shuning uchun ortiqcha siylik kislotasi organizmdan chiqarib yuboriladi. GLUT9 oqsili yordamida siylik kislotasini (yoki urat deb ataladigan ushbu moddani) qon oqimiga qaytaradi yoki organizmning ehtiyojiga qarab siydkka chiqarib yuborishi mumkin.Buyraklar orqali filtrlangan ko'p miqdorda siylik kislotasi qon oqimiga qaytariladi, taxminan 10 % siydkka chiqariladi. GLUT9 oqsili shuningdek, glukozani qayta hosil bo'lishi va chiqarib yuborilishida asosiy ro'l o'ynaydi [46].

**GLUT 9 gening xromosomada joylashuvi.** Sitogenetik joy xaritasi: 4p16.1, ya'ni 16.1 pozitsiyasida xromosoma 4 ning qisqa (p) qo'lidir. Molekulyar joylashuvi: 4 xromosoma bo'yicha 4,07,125 dan 10,040,248 tayanch juftliklar (Homosapiens Annotation Release 109, GRCh38.p12) (NCBI).



**8- rasm. GLUT 9 gening sitogenetik joy xaritasi.**

**Ushbu gening boshqa nomlari:**

- Glucose transporter type 9
- GLUT-9
- GLUTX
- Human glucose transporter-like protein-9
- Solute carrier family 2 (facilitated glucose transporter), member 9
- UAQTL2
- urate voltage-driven efflux transporter 1

**Buyrak giperurikemiyasida genetika o'zgarishlar.** Buyrak giperurikemiyasida GLUT9 geni bilan bog'liq 13 mutatsiya aniqlangan. Bu holat qondagi siydik kislotasining kamaytirilishiga olib keladi. Buyrak giperurikemiya ko'p hollarda sog'liqqa hech qanday muammo tug'dirmaydi, ammo jismoniy mashqlar, buyrak toshlari yoki siydik ichidagi qon (gematriya) dan keyin og'riq va ko'ngil aynishi mumkin. Buyrak giperurikemiyaga olib keladigan mutatsiyalarning ko'pchiligi GLUT9 oqsilidagi quruvchi bloklarni (aminokislotalar) o'rnni bosadi va oqsil siydik kislotasini qaytarib olish uchun oqsilni keskin kamaytiradi yoki yo'q qiladi. Natijada, siydik bilan siydik kislotasining ortiqcha miqdori yo'qoladi. Siydik kislotasi miqdoridagi ushbu o'zgarishlar buyrak giperurkemiya belgilari va alomatlariga qanday olib kelishi

aniq bo'lmasada, siyidik kislotasining antioksidant xususiyatlarining siyidikda suspenziya qilish uchun buyraklar orqali chiqariladigan siyidik kislotasi miqdorini oshirish bilan birga bu holatning xarakteristik xususiyatlariga yordam beradi.

Buyrak giperurikemiyasi bu urat (siyidik kislotasi) reabsorbsiyasi buzilishidan va keyinchalik siyidik kislotasining miqdorini pasayish darajasi oqibatida, buyrak yetishmovchiligi va nefrolitiyaz kabi jiddiy asoratlar bilan ajralib turadigan kasallikdir. Avvalgi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, buyrak giperurikemiyasini keltirib chiqarishga URAT1 genidagi mutatsiyasi sabab bo'lgan. Shu bilan birga, URAT1 geni mutatsiyasi natijasida buyrak giperurikemiyasi bo'lмаган bemorlarda, boshqa GLUT9 gen mutatsiyasi bilan bog'liq bo'lishi mumkin, ya'ni URAT1 va GLUT9 genlar o'rtasida umumiylashtirish natijasida biz, GLUT9 geniga bog'liq ikkita funktsiyaga ega geterozigota mutatsiyasini aniqladik, bu esa yuqorida qayt etib o'tilgan glukoza transporti oqsillari buzilishlaridir. Ikkala mutatsiya ham ijobiy natijalar bo'lib, ulardan biri muhim bo'lgan membran topologiyasi determinanti deb hisoblanadi. Tadqiqot natijasiga ko'ra, mutatsiyaga uchragan GLUT9 oqsilining isoformalari sezilarli darajada kamayganligi sababli, siyidikning ajralishiga ta'sir ko'rsatmoqda. Ya'ni, GLUT9 genidagi mutatsiya buyrak giperurikemiyasida siyidik reaktsiyasini kamaytirishi bilan izohlanadi.

Ushbu tadqiqotlar natijasida, odamlarda GLUT9 genini o'rganish qonda siyidik kislotasi darajasini tartibga solish, podagra va ayrim yurak-qon tomir (kardiovaskulyar) kasalliklarini oldini olish uchun istiqbolli terapevtik maqsad bo'lishi mumkin. Buyrakda uratning reabsorbsiyasi va undan keyingi bosqichda qonda uratning miqdorini pastligi bilan buyrak giperurikemiyasi xarakterlanadi va umumiylashtirish natijasida irsiy kasallik hisoblanadi. Ayniqsa, bu o'tkir buyrak yetishmovchiligi va nefrolitiyaziyada kuzatiladi. Avval aytib o'tkanimizdek, buyrak giperurikemiyasiga sabab bo'luvchi gen URAT1 ya'ni (SLC22A12) deb ham ataladi. Biroq, URAT1 geni mutatsiyasi natijasida buyrak giperurikemiyasi

bo'lмаган bemor buyragida yana bir muhim urat tashuvchi oqsil mavjudligini anglatadi. Yaqinda o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, genom keng assotsiatsiyalashgannukleotid polimorfizmlari (SNPs) bilan bog'liq (GLUT9) oqsilini kodlanishi natijasida urat konsentrasiyalari pasayishib ketishi kuzatildi. Umuman olganda, inson qonida urat miqdori boshqa sute Mizuvchilardan ya'ni (sichqon va boshqa jonzot) larnikidan ko'pdir, chunki insonlarda uratni degradatsiyalovchi fermenti bo'lgan jigar urikazalari mavjud emas. Shu sababli, insonlarda GLUT9 geni tomonidan uratning tartibga solishning fiziologik ahamiyatini tadqiq qilish maqsadli sichqonlarda buni o'rganish maqsadga muvofiq emas, chunki ular faol urikazani ekspluatatsiya qilishmaydi. Shunga ko'ra, inson salomatligini tekshirishda haqiqiy ma'lumotlar bazasidan foydalangan holda GLUT9 oqsilini yetishmovchiligin bemorlarda genetik jihatdan tekshirish va aniqlashga qaror qildik.




Figure 2. Genomic Structure of the Human GLUT9 Gene

## 9- rasm. Odam genomidagi GLUT9 gening tuzilishi.

(A) - GLUT9 gen va cDNA ning tuzilishi. Inson GLUT9 genida 14 ekzon (1 kodlamaydigan va 13 kodlaydigan) mavjud va u yerda joylashgan xromosoma 4p15.3-p16. GLUT9 genining muqobil biriktirilishi ikki asosiy transkriptsiyada bo'ladi: GLUT9 isoform 1 (uzun izoform, GLUT9L) va izoform 2 (qisqa izoform, GLUT9S).

(B) - GLUT9 genining ekson-intron chegaralari.

**GLUT9 geni bilan bog'liq boshqa kasalliklar.** Ba'zi tadqiqotlar GLUT9 genidagi turli mutatsiya o'zgarishlarini ko'rsatmoqda, bulardan siydiq kislotasi kristallari natijasida paydo bo'luvchi artritning shakli bo'lgan Podagra kasalligidir.Ushbu holatlar siydiq kislotasini chiqarib yuboradigan GLUT9 oqsillarini zaiflashtiradi. Natijada, ko'p miqdorda siydiq kislotasi qon oqimiga qaytariladi va u organizmda siydiq kislotasi paydo bo'lishiga olib keladi. Bu ortiqcha siydiq kislotasi ko'pincha tananing bo'g'imlarida kristallar shaklida to'planadi va og'riqli artritga olib keladi. Biroq, boshqa tadqiqotlar GLUT9 geni mutatsiyasida podagra kasalligidan boshqa kasallik bilan assotsiatsiyani topmadilar. Podagra kasalligida GLUT9 genining ro'li noaniq bo'lsada, bu murakkab buzilish xavfini aniqlashda turmush tarzi, genetik va ekologik omillarning kombinatsiyasidan foydalanish muhimligi ma'lum [47,48].

### **I bob bo'yicha xulosalar.**

Ushbu bobda Giperurikemiya kasalligi molekulyar-genetik darajada yoritilgan bo'lib, kasallikning kelib chiqish sabablari,turlari, alomatlari, tashxisi va profilaktikasi bayon qilingan. Ushbu kasallikning kelib chiqishiga sabab bo'luvchi GLUT9 gening qaysi xromosomani lokusida joylashganligi va uning vazifalari haqida keltirib o'tilgan. Bu geni chuqur o'rganish natijasida turli patologiyalarni oldini olishda xususan, giperurikemiya va uning natijasida kelib chiquvchi Podagra kasalligini erta aniqlash va davolashda muxim o'rinni egallashi asoslangan. Yana shuni ta'kidlab o'tish kerakki, giperurikemiyaga kasalligigi chalinishda faqat genetik mutatsiya sabab bo'lib qolmastan boshqa

faktorlarning o'rni ham mavjudligi, bularga ekologik va boshqa omillarni keltirish mumkin.

## **II. BOB. ILMIY TADQIQOTDA QO'LLANILGAN MATERIAL VA METODLAR.**

**Tadqiqot obyektimiz** Giperurikemiya kasalligiga guman qilingan 121 ta bemorlarva 50 ta sog'lom odamlarningvenoz qonidagi DNK na'munalari hisoblandi. GLUT9 geni va uning rs734553 G/T polimorfizmi.

Venoz qon na'munalari Samarqand Tibbiyot instituti Urologiya kafedrasida yig'ildi va Fanlar Akademiyasi Biorganik kimyo instituti Farmakogenomika (avalgi Genomika) laborotoriyasida DNK ajratildi GLUT9 genini PZR-amplifikatsiya qilindi, Restriksion reaksiyalar o'tkazildi.

### **2.1. Kerakli reaktivlar va eritmalar tayorlash.**

**Reaktivlar:** Natriy sitrat 3,8 %, Diatom to'plami (Rossiya Sintol), K sorb-100 (Isogen Rossiya), agarozza, bromfenol-ko'ki, etidium bromid, buferli sistema TBE, Master- Mix reagentining tayyor aralashmasi (ishlab chiqaruvchi TAKARA, Yaponiya), PCR core (Isogen Rossiya), Nuclease Free Water, 76% li va 96% li etil spirti, dH<sub>2</sub>O, biogel (filtr), bisakrilamid, akrilamid, 10 x TBE, PSA.

#### **2.1.1. Tadqiqot uchun kerakli jihozlar**

1. PSR- Amplifikator Applied Biosystems 9700 (AQSh)
2. Transillyuminator Wise Doc (Korea)
3. Sentrifuga Eppendorf 5417C
4. Vorteks Genie Scicutific Industries
5. Elektroforez pribori (Stratagen)
6. Eppendorf probirkalari
7. Har - xil o'lchamdagи mikropipetkalar
8. Termostat (Tersik)
9. Elektron tarozi

## **2.2. DNK ajratish metodikasi**

DNK ajratishning bir qancha turi mavjud bo'lib, biz tadqiqot davomida DiatomTM usuli orqali DNK ajratish metodidan foydalandik.

### **2.2. Diatom TM usulida DNK ajratish**

DNK ni ajratishda DiatomTM DNA Prep 200 quruq reagentlar to'plamidan foydalandik. DNKn ni ajratishdan avval tuzli buferning ishchi eritmasidan foydalandik. Tuzli buferni tayyorlash uchun, 10 karrali tuzli buferdan 10 ml solamiz. So'ng o'lchamli silindrغا o'tkazib, 100 ml gacha bidistillangan suv qo'shdik va 96% li etil spirtdan silindrning 300 ml ko'rsatkichigacha quydik. So'ng yaxshilab aralashtirdirdik. Tayyor ishchi eritmani - Tuzli buferni 40°C xaroratda, germetik yopiq holatda saqladik. 1,5 ml xajmli probirkaga o'r ganilayotgan na'munadan 200 mkl qo'shdik, uni ustiga esa 800 mkl lizis reagentidan qo'shdik va probirkalarni 5-10 marta aralashtirdik. Lizis reagenti DNK dan tashqari boshqa barcha xujayraviy strukturalarni parchalaydi. So'ng probirkadagi aralashmani 5-7 min davomida, 65°C xaroratda termostatga qo'ydir. Termostatdan olingandan so'ng, probirkalarni 5000 ob/min sentrifugada 30-sek davomida sentrafuga qildik. Bu jarayonda reagentlar yordamida hujayra devorlari buziladi va probirkadagi aralashma cho'kma xamda supernatantga ajraldi. So'ng tiniq supernatantni toza probirkaga quyib oldik va unga 20 mkl NucleosSTM sorbenti qo'shdik. NucleosSTM sorbenti DNK ni o'ziga biriktiradi. Aralashma vorteks yordamida gomogen xolatga keltirildi. Bu probirkani 10 min davomida qo'lda aralashtirdik. So'ng probirkalarni 5000 ob/min, 30-sek ga sentrifugaga qo'ydir. Sentrifugadan olingan probirkalardagi supernatantni extiyotlik bilan to'kib tashladik. So'ng cho'kmaga 400 mkl lizis reagentidan qo'shdik va vorteks yordamida aralashmani gomogen xolatga keltirdik. Probirkaga 1 ml tuzli buferni ishchi eritmasidan qo'shdik. So'ng probirkani 5-10 martta qo'lda aralashtirdik va 10 sek, 5000 ob/min da sentrifugaga qildik. Sentrifugadan olingan probirkalardagi supernatantni extiyotlik bilan to'kib tashladik. Keyin probirkaga 1ml tuzli eritma qo'shdik, uni vorteksda

aralashtirdik. So'ng probirka 10 sek, 5000 ob/min ga sentrifugaga qo'yidik. Yana extiyotlik bilan supernatantni to'kib tashladik. So'ngra, bu ish, ya'ni cho'kmani tuzli bufer bilan yuvilishi 3 martta amalga oshirildi. So'ng supernatantdan xoli bo'lgan cho'kmani 65°C xaroratda 3 min ga termostatga quritishga qo'yidik. Termostatdan olingan probirkaga 100-200 mkl EkstraGenTM qo'shdik.

EkstraGen YeTM ion almashuvchilar aralashmasini suspenziyasi bo'lib, DNK ni o'ziga biriktirib oladi. So'ng aralashmani vorteksda 5-10 sek davomida, ya'ni gomogen suspenziya xosil bo'lguncha aralashtirdik. So'ng termostatga, 65°C xaroratda, 4-5 min ga qo'yidik. Probirkadagi aralashmani, sentrifugaga qo'yishdan avval, yana bir marta vorteksda suspenziya xolatiga keltirdik. So'ng 10 000 ob/min da 1 min ga sentrifugaga qo'yidik. Probirkadagi supernatant toza probirkaga quyib olindi va uni - 20°C xaroratda sovutgichda saqladik.

### **2.3. Agarozali gel elektroforez qo'yish.**

Agaroza gelidagi elektroforez – standart metod bo'lib, DNK fragmentlarini tozalash, aniqlash va ajratishda foydalaniladi. DNK fragmentini ajratib olganimizni aniqlash uchun agaroza gelida elektroforez qo'yidik. Agaroza gelidagi elektroforezda TBE bufer sistemasi ishlatiladi. Bufer 121 g Tris, 55 g Bor kislota, 7,55 EDTA moddalaridan tashkil topib, ular ozgina (500 ml) distillangan suv bilan magnitli aralashtirgich yordamida aralashtiriladi va 1 l ko'rsatkichgacha distillangan suv qo'shiladi. Gellarni turli konsentratsiyalarini ishlatgan holda o'lchami bilan farqlanadigan DNK fragmentlarini katta to'plamini ajratish mumkin.

Zonali elektroforezni olib borishda agar geli tashuvchi muhit hisoblanadi. 0,8% li agaroza gelida DNK erkin elektroforezdagi kabi harakatlanadi. Agaroza geli quyidagicha tayyorlanadi: 1 gramm agaroza 100 ml 0,5 % li TVE ni 200 ml li toza kolbaga solib, mikroto'lqinli pechga solib eritiladi. Agaroza toza erigandan so'ng, etidium bramiddan 7 mkl solinadi (1mg/ml) va sekin- asta aralashtiriladi. So'ng biroz hona xaroratiga

**1-jadval.**

**Chiziqli DNK molekulalarini turli agarzoa konsentratsiyalarida  
ajralishi.**

Geldagi agarzoa miqdori, %	Chiziqli DNK molekulalarini samarali ajratish metodikasi.
0,3	60-5
0,6	20-1
0,7	10-0,8
0,9	7-0,5
1,2	6-0,4
1,5	4-0,2
2,0	3-0,1

qo‘yiladi. Avval tayyorlab qo‘yilgan farez tagliglariga agarzoa gelini quyiladi. Gelda o‘yiqchalarni hosil qilish uchun taroqcha qo‘yiladi. Agaroza gel hona temperaturasida 30 minutlardan keyin qotadi (polimerlanadi). Sekin asta taroqcha olinib, o‘yiqchalarga tekshirilayotgan PZR mahsulotini solishimiz mumkin. Agaroza qatlaming tininqligi DNK fraksiyalarini yaxshi bo‘yashni va fotometrik uslub aniqlashni osonlashtiradi.

#### **2.4. PZR – amplifikatsiya reaksiyasini o’tkazish.**

Polimeraza zanjir reaksiyasi uslubi tibbiyot diagnostikasida muhim o’rin tutadi. Bir qancha kasallikkarga aniq tashxis qo‘yish uchun metoddan foydalanish oxirgi yillarda keng miqyosda yo’lga qo‘yilmoqda. Jumladan, gen mutatsiyalarini, xromosoma kasalliklarini aniqlashda polimeraza zanjiri reaksiyadan foydalanish samarali natija bermoqda. Metod sun’iy sharoitda (in vitro) ferment yordamida tanlangan DNK ning ma’lum bir bo’lagini ko’p marotaba ko’paytirishga asoslangan. Bunda faqatgina ma’lum bir DNK qisminigina nusxalari hosil bo’ladi. Agar tadqiq qilinayotgan na’munada DNK

fragmenti bor bo'lsagina tanlangan sharoitlarga mos kelgan holda jarayon amalga oshadi.

#### **2.4.1. PZR uchun maxsus nabordan foydalanib PZR amplifikatsiya qilish**

Polimeraza zanjir reaksiyasi uslubi uchun oddiy hollarda xromosomalarni aniqlashda quyidagi komponentlar talab etiladi:

1. DNK-matritsa – amplifikatsiyalash uchun talab qilinadigan DNK ning ma'lum bir fragmenti.
2. Praymer – kerakli DNK fragmentining qarama-qarshi joylashgan har-xil zanjir oxirlariga komplimentar bo'ladi.
3. Giperurikemiyanı aniqlash uchun GLUT9 gening praymerlari tanlanadi.
